ISNN:2181-1296

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (156)
2026

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2026-yil, 2-son (156/2) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Huquqshunoslik, Siyosiy fanlar, O‘qitish metodikasi, Filologiya, Pedagogika, Sotsiologiya, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R.I.XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI: **H.A.XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M.Q.Muhiddinov	-f.f.d., professor (SamDU)	B.E.Ergashev	-t.f.d., professor (SamDU)
Stefano Benazzi	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	S.A.Karimov	-f. f. d., professor (SamDU)
Simone Mantelini	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	M.X.Lutfullayev	-p.f.d.. professor (SamDU)
Sh.Y.Ziyodov	-i.f.d. (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)	A.R.Samadov	-fal. f.d., professor (SamDU)
N.U.Arabov	-i.f.d., professor (SamDU)	Sh.A.Hasanov	-f.f.d., professor (SamDU)
Hiroaki Huziie	-Osaka universiteti professori (Yaponiya)	B.S.G‘oyibov	-t.f.d., (SamDU)
B.O.To‘rayev	-fal. f.d., professor (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-	G.B.Normurodova	-t.f.d., (SamDU)
A.B.Pardayev	-f. f.d., professor (SamDU)	F.Sh.Rashidova	-t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.Yusupova	-f.f.n., dotsent (SamDU)	D.Q.Usmonova	-i.f.n., dotsent (SamDU)
O.Qodirov	-p.f.n., dotsent (SamDU)	N.A.Isakova	-f.f.n., dotsent (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun- **5584**

M U N D A R I J A
C O N T E N T S

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
1	Samarqandning Temuriylar sulolasi davridagi evolyutsiyasi, uning sivilizatsiyalarga o‘zaro ta’siri va uyg‘unlashuvi **Keremu N.**	The evolution of samarkand during the timurid dynasty and the interaction and fusion of its civilizations **Keremu N.**	**5-11**
2	Nazar Eshonqulning “Bepoyon osmon” hikoyasida muallif uslubiga lingvopoetik jihatdan yondashuv **Safarova D.B.**	A Linguopoetic Approach to the Authorial Style in Nazar Eshonqul’s Short Story “Bepoyon osmon” (The Boundless Sky”) **Safarova D.B.**	**12-15**
3	Ingliz va o‘zbek tillarida neologizmlarning tasnifi va ularning til tizimidagi o‘rni **Pardayeva N.B.**	Classification of neologisms in english and uzbek languages and their role in the language system **Pardaeva N.B.**	**16-20**
4	O‘rta asrlarda sharq va g‘arbiy yevropa mamlakatlaridagi davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzilmalarining qiyosiy tahlili **Abdullayev A.G.**	A comparative analysis of public administration and social structures in the countries of Eastern and Western Europe in the Middle Ages **Abdullaev A.G.**	**21-27**
5	Davlat ekologik ekspertizasi tizimining shakllanish tarixi va uning rivojlanish bosqichlari **O‘tayev O‘. Ch.**	History of the formation of the state ecological expertise system and its development stages **Utaev U. Ch.**	**28-30**
6	Samkomstarisning Samarqanddagi arxeologik tadqiqotlari va muzey fondlari shakllanishiga qo‘shgan hissasi **Yunusov M.**	The contribution of samkomstaris to archaeological research in Samarkand and to the formation of museum collections **Yunusov M.**	**31-36**
7	7-9-sinf o‘quvchilarining stem kompetensiyalarini baholash: spetsifikatsiya, mezonlar va kpi indikatorlari **Aliyeva X.Sh.**	Assessment of Stem competencies of 7-9 grade students: specification, criteria and kpi indicators **Alieva Kh.Sh.**	**37-42**
8	Raqamli tibbiy ta’limda talabalarda profilaktik immun madaniyatni rivojlantirish texnologiyalari **Mirzakarimova D.B.**	Technologies for the development of preventive immune culture in digital medical education students **Mirzakarimova D.B.**	**43-49**
9	10-12 yoshli kurashchilarda egiluvchanlik sifatining kurash texnikasini o‘zlashtirish samaradorligiga ta’siri **Toshmurodov O.**	The effect of flexibility on the efficiency of kurash technique acquisition in 10–12-year-old kurash athletes **Toshmurodov O.**	**50-57**
10	Влияние государственной политики развития спорта (в контексте «нового Узбекистана») на мотивацию учащихся спортивных школ **Мадаминов Б.Ш.**	The influence of state policy on sports development (in the context of "New Uzbekistan") on the motivation of students in sports schools **Madaminov B.Sh.**	**58-62**
11	Трансформация и калькирование иронических фразеологических единиц в русском и узбекском языках **Тошбекова Д.И.**	Transformation and Calquing of Ironic Phraseological Units in Russian and Uzbek **Toshbekova D.I.**	**63-68**
12	Объективная и субъективная модальность в русском и узбекском языках **Усманова С.Ю.**	Objective and subjective modality in Russian and Uzbek languages **Usmanova S.Yu.**	**69-76**
13	Образ женщин в произведениях Ч. Айтматова **Хаитова Ф.С.**	The Image of Women in the Works of Ch. Aitmatov **Khaitova F.S.**	**77-81**
14	Voleybol murabbiylarini tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish afzalligi **Boltayev Z.B.**	The advantage of using modern pedagogical technologies in the process of training volleyball coaches **Boltaev Z.B.**	**82-87**

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
15	Bo‘lajak shifokorlarda klinik-diagnostik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik modeli va raqamli ta’lim **Zokirov M.M.**	Pedagogical model for developing clinical-diagnostic competence in future physicians and digital educational technologies **Zokirov M.M.**	**88-93**
16	Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (tika)ning tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari hamda tashkiliy-siyosiy asoslari **Isadjanov B.I.**	The Establishment and Development of the Turkish Cooperation and Coordination Agency (TIKA), as well as its Organizational and Political Foundations **Isadjanov B.I.**	**94-98**
17	Ingliz gazeta sarlavhalarining tarjima xususiyatlari: lingvostilistik tahlil **Husanova Sh.Z., Isakova N.A.**	Translation features of English newspaper headlines: linguistic-stylistic analysis **Husanova Sh.Z., Isakova N.A.**	**99-103**
18	Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda 4k modeli orqali fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish **Gadayev O.Y., Norkulova J.S.**	Developing thinking and creativity through the 4k model in teaching mother tongue in primary grades **Gadayev O.Y., Norkulova J.S.**	**104-108**
19	Raqamli demokratiya sharoitida legitimlik va fuqarolik faolligining konfiguratsiyasi **Muminjonova U.X.**	Configuration of legitimacy and citizenship in the digital democracy **Muminjonova U.X.**	**109-113**
20	Simulyatsion va raqamli ta’lim muhitida jarrohlik fanini o‘qitishda amaliy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasi **Abduvoxidov A.A.**	Technology for developing practical professional competencies in teaching surgery within a simulation-based and digital learning environment **Abduvoxidov A.A.**	**114-119**
21	Shoshilinch tibbiy yordamda travmatologik holatlarni sun’iy intellekt asosida erta triaj qilish va klinik qaror qabul qilish samaradorligini oshirish metodikasi **Xolmatov A.A.**	Methodology for improving the efficiency of early triage and clinical decision-making in traumatological conditions in emergency medical care based on artificial intelligence **Xolmatov A.A.**	**120-125**
22	Bo‘lajak shifokorlarda klinik qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik raqamli texnologiyalari **Samatov Z.Z.**	Pedagogical digital technologies for developing clinical decision-making competence in future physicians **Samatov Z.Z.**	**126-130**
23	Yuqumli kasalliklar fanini o‘qitishda klinik-profilaktik fikrlash va epidemiologik xavflarni boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi **Turdiyev M.N.**	Technology for developing clinical-preventive thinking and epidemiological risk management competencies in teaching infectious diseases **Turdiev M.N.**	**131-136**
24	Bo‘lajak shifokorlarga raqamli ta’lim muhitida anatomiya fanini o‘qitishninig zamonaviy texnologiyalari **Nishonova D.T.**	Modern technologies of teaching anatomy to future physicians in a digital educational environment **Nishonova D.T.**	**137-142**
25	Stomatologiya ta’limida valeologik madaniyatni rivojlantirishning integrativ va raqamli pedagogik texnologiyalari **Kamoliddinova I.Sh.**	Ntegrative and digital pedagogical technologies for developing valeological culture in dental education **Kamoliddinova I.Sh.**	**143-148**
26	Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarda mediasavodxonlik ko‘nikmalarini interfaol ta’lim texnologiyalari asosida takomillashtirish **Temirova Z.A.**	Improving students’ media literacy skills in a digital learning environment based on interactive educational technologies **Temirova Z.A.**	**149-154**
27	Tibbiy ta’lim muassasalari talabalarida klinik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi **Kamalova D.A.**	Technology for developing clinical thinking competence among students of medical educational institutions **Kamalova D.A.**	**155-159**
28	Charlz Dikkensning ijodida idio-stilning rivojlanishi: lingvostilistika tahlili **Rahmatilloyeva R.S.**	The development of idio-style in charles dickens’s creative work: linguastylistic analysis **Rahmatilloeva R.S.**	**160-167**

UDK: 42:494.3 https://doi.org/10.59251/2181-3973.2025.v1.138.1.3908

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA NEOLOGIZMLARNING TASNIFI VA ULARNING TIL TIZIMIDAGI O‘RNI

N.B.Pardayeva
O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston.

N.B.Pardayeva
O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston.

Kelib tushgan: 11.03.2026
Ko‘rib chiqildi: 29.03.2026
Qabul qilindi: 10.04.2026
Nashr qilindi: 30.05.2026

Nashriyotchi: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.

Annotatsiya. mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida neologizmlarning tasnifi, shakllanish omillari hamda ularning til tizimidagi o‘rni qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida yangi so‘zlarning yuzaga kelishida globallashuv, internet texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy kommunikatsiyaning ta’siri yoritilgan. Shuningdek, neologizmlarning struktur va semantik xususiyatlari, o‘zlashma birliklarning tilga moslashuvi hamda ularning kundalik nutqdagi qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi. Ingliz tilida neologizmlar asosan ichki til imkoniyatlari orqali hosil bo‘lsa, o‘zbek tilida ular ko‘proq xorijiy tillardan o‘zlashish asosida shakllanadi. Maqolada neologizmlarning til boyligini oshirishdagi ahamiyati va zamonaviy til taraqqiyotidagi o‘rni yuzasidan ilmiy xulosalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: neologizm, ingliz tili, o‘zbek tili, leksik birliklar, semantik o‘zgarish, o‘zlashma so‘zlar, internet tili, globallashuv, til taraqqiyoti, yangi so‘zlar.

Классификация неологизмов в английском и узбекском языках и их роль в языковой системе

Аннотация. в данной статье рассматриваются классификация неологизмов в английском и узбекском языках, факторы их формирования и их роль в языковой системе в сравнительном аспекте. Особое внимание уделяется влиянию глобализации, интернет-технологий, социальных сетей и современной коммуникации на появление новых слов. Также анализируются структурные и семантические особенности неологизмов, адаптация заимствованных единиц и их употребление в повседневной речи. Если в английском языке неологизмы в основном формируются за счёт внутренних языковых возможностей, то в узбекском языке они чаще возникают посредством заимствования из иностранных языков. В статье делаются научные выводы о значении неологизмов в обогащении словарного состава и развитии современного языка.

Ключевые слова: неологизм, английский язык, узбекский язык, лексические единицы, семантические изменения, заимствованные слова, язык интернета, глобализация, развитие языка, новые слова.

Classification of neologisms in english and uzbek languages and their role in the language system

Abstract. this article examines the classification of neologisms in English and Uzbek languages, the factors influencing their formation, and their role in the language system through a comparative approach. The study highlights the impact of globalization, internet technologies, social media, and modern communication on the emergence of new words. In addition, the structural and semantic features of neologisms, the adaptation of

borrowed lexical units, and their usage in everyday speech are analyzed. While neologisms in English are mainly formed through the internal resources of the language, in Uzbek they are often introduced through borrowing from foreign languages. The article presents scientific conclusions regarding the importance of neologisms in enriching vocabulary and contributing to the development of modern language.

Keywords: neologism, English language, Uzbek language, lexical units, semantic change, borrowed words, internet language, globalization, language development, new words.

Til jamiyat bilan birga rivojlanadigan tirik tizim hisoblanadi. Jamiyat hayotida yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamda texnologik o‘zgarishlar til leksikasining ham doimiy ravishda yangilanib borishiga sabab bo‘ladi. Ana shu jarayonda tilga yangi so‘z va iboralar kirib keladi. Tilshunoslikda bunday yangi leksik birliklar neologizmlar deb yuritiladi. “Neologizm” termini yunoncha *neos* - “yangi” va *logos* - “so‘z” ma’nolaridan kelib chiqqan bo‘lib, yangi paydo bo‘lgan yoki yangi ma’noda qo‘llanayotgan birliklarni anglatadi[1]. Zamonaviy tilshunoslikda neologizm tushunchasiga turli olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar bildirilgan. Ferdinand de Saussure tilni ijtimoiy belgilar tizimi sifatida talqin qilib, til birliklari jamiyat ehtiyojlari asosida yangilanib borishini ta’kidlaydi. Uning qarashlariga ko‘ra, yangi so‘zlarning yuzaga kelishi til taraqqiyotining tabiiy va qonuniy mahsuli hisoblanadi[2]. Amerikalik tilshunos Leonard Bloomfield esa neologizmlarning paydo bo‘lishini jamiyatdagi yangi predmet va tushunchalar bilan bog‘laydi. Olimning fikricha, jamiyatda yangi hodisa yuzaga kelsa, unga nom berish ehtiyoji paydo bo‘ladi va aynan shu ehtiyoj yangi so‘zlarni yuzaga keltiradi. Ingliz tilshunosi John Algeo neologizmlarni “ijtimoiy ongda shakllangan yangi konseptlarning lingvistik ifodasi” sifatida baholaydi. Bu esa neologizmlarning nafaqat lingvistik, balki kognitiv hodisa ekanini ham ko‘rsatadi[2]. Rus tilshunosi N.M. Shanskiy esa neologizmlarni muayyan tarixiy davr uchun yangi bo‘lgan, ammo hali umumxalq tiliga to‘liq singib ulgurmagan leksik birliklar sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuvda vaqt omili va yangilik hissi asosiy mezon sifatida qaraladi. O‘zbek tilshunosligida ham neologizmlar masalasi alohida ilmiy qiziqish uyg‘otib kelmoqda. Tilshunos A. Hojiyev neologizmlarni tilning ichki imkoniyatlari va tashqi ijtimoiy omillar ta’sirida yuzaga keladigan leksik yangiliklar sifatida tavsiflaydi. Shuningdek, o‘zbek tilida mustaqillikdan keyingi davrda siyosiy, iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlar natijasida yuzlab yangi birliklar shakllangani qayd etiladi. Neologizmlarning asosiy belgilaridan biri ularning yangilik xususiyatidir. Bundan tashqari, ular yangi tushuncha yoki predmetni ifodalaydi, tilning lug‘at boyligini kengaytiradi va kommunikativ ehtiyojni qondiradi. Ayrim neologizmlar vaqt o‘tishi bilan umumiste’mol qatlamiga o‘tib, odatiy so‘zga aylanishi mumkin. Masalan, bir vaqtlar yangi hisoblangan “kompyuter”, “internet”, “mobil” kabi birliklar bugungi kunda faol leksik qatlamga kirib ulgurgan. Neologizmlarning shakllanishi bevosita jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Ayniqsa, XXI asrda globallashuv, internet texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi yangi leksik birliklarning paydo bo‘lish jarayonini yanada tezlashtirdi[3]. Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar neologizmlarning eng faol manbalaridan biri hisoblanadi. Ingliz tilida “podcast”, “streaming”, “chatbot”, “influencer”, “doomscrolling” kabi birliklar aynan internet muhiti orqali ommalashgan. O‘zbek tilida esa “bloger”, “post”, “story”, “like bosmoq”, “trendga chiqmoq” kabi iboralar kundalik nutqning faol qismiga aylangan. Bu jarayon internet tilining zamonaviy kommunikatsiyaga kuchli ta’sir ko‘rsatayotganini anglatadi. Siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar ham neologizmlar paydo bo‘lishining muhim omillaridan biridir. Mustaqillikdan keyingi davrda o‘zbek tilida “elektron hukumat”, “raqamli iqtisodiyot”, “onlayn ta’lim” kabi yangi tushunchalar shakllandi. Ingliz tilida esa “cancel culture”, “wokefishing” kabi birliklar zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarni ifodalash uchun yuzaga kelgan[4]. Madaniy almashinuv va tillararo aloqa ham yangi so‘zlarning keng tarqalishiga sabab bo‘lmoqda. Hozirgi davrda ingliz tili xalqaro kommunikatsiya vositasi sifatida boshqa tillarga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada o‘zbek tiliga ingliz tilidan ko‘plab birliklar kirib kelmoqda. Masalan, “selfi”, “trend”, “marketpleys”, “freelanser”, “kontent” kabi birliklar dastlab ingliz tilida paydo bo‘lgan bo‘lsa, hozirda o‘zbek tilida ham faol qo‘llanmoqda. Texnologik taraqqiyot esa neologizmlar shakllanishining eng asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Yangi qurilmalar, dasturlar va raqamli xizmatlar yangi terminlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Masalan, “artificial intelligence”, “blockchain”, “cloud computing” kabi birliklar zamonaviy

texnologiyalar rivoji bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan. O‘zbek tilida esa ular “sun’iy intellekt”, “blokcheyn”, “bulutli texnologiya” shaklida qo‘llanmoqda[5]. Neologizmlar til tizimida muhim funksional vazifalarni bajaradi. Eng avvalo, ular tilning lug‘at boyligini kengaytiradi. Har bir yangi davr til oldiga yangi kommunikativ ehtiyojlarni qo‘yadi va til aynan yangi birliklar orqali bu ehtiyojlarni qondiradi. Neologizmlarning asosiy vazifalaridan biri yangi tushunchalarni ifodalashdir. Jamiyatda ilgari mavjud bo‘lmagan hodisa yoki predmet paydo bo‘lsa, unga nom berish zarurati yuzaga keladi. Masalan, “chatbot”, “streaming”, “metaverse”, “onlayn dars” kabi birliklar zamonaviy texnologik muhit mahsuli sifatida shakllangan[1]. Bundan tashqari, neologizmlar nutqning zamonaviylashuviga xizmat qiladi. Ayniqsa, yoshlar nutqida yangi birliklarning faol qo‘llanishi tilni dinamik va jonli holga keltiradi. “Vibe”, “mood”, “top”, “reels”, “story” kabi birliklar yoshlar kommunikatsiyasida keng ishlatilmoqda. Bu esa zamonaviy madaniyat va til o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Shuningdek, neologizmlar tilning moslashuvchanligini namoyon etadi. Har qanday tirik til yangi sharoitlarga moslashish xususiyatiga ega bo‘ladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi neologizmlar ham zamonaviy jamiyat ehtiyojlari asosida shakllanib, til taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichiga aylanmoqda.

Neologizmlar til tizimida turli struktur usullar orqali shakllanadi. Zamonaviy ingliz va o‘zbek tillarida yangi so‘zlarning hosil bo‘lishida so‘z yasash, qo‘shma so‘zlar yaratish, qisqartmalar hamda akronimlar eng faol usullar hisoblanadi. Ayniqsa, texnologiya va internet muhitining rivojlanishi ushbu jarayonni yanada tezlashtirdi[7]. So‘z yasash orqali hosil bo‘ladigan neologizmlar ingliz tilida juda faol hisoblanadi. Ingliz tilining ichki imkoniyatlari yangi birliklar yaratishda keng qo‘llanadi. Masalan, “blog” so‘zidan “blogger”, “vlog”, “microblogging” kabi yangi birliklar hosil qilingan. O‘zbek tilida esa “blogerlik”, “tarmoqchi”, “chatlashmoq” kabi shakllar yuzaga kelgan[8]. Qo‘shma so‘zlar ham neologizmlarning mahsuldor turi hisoblanadi. Ingliz tilida “smartphone”, “crowdfunding”, “greenwashing”, “carbon footprint” kabi birliklar ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlarning qo‘shilishi orqali yaratilgan. O‘zbek tilida esa “onlayn-ta’lim”, “ijtimoiy tarmoq”, “aqlli uy” kabi qo‘shma birliklar faol ishlatilmoqda. Qisqartmalar va akronimlar zamonaviy kommunikatsiyada juda keng tarqalgan. Texnologik va media sohasida vaqtni tejash maqsadida qisqartma shakllardan foydalanish kuchaygan. Masalan, “AI” (Artificial Intelligence), “NFT”, “VIP”, “app” kabi birliklar ingliz tilida faol qo‘llanadi. O‘zbek tilida ham “IT”, “AI”, “SMM” kabi qisqartmalar kundalik nutqqa kirib ulgurgan. Shuningdek, akronimlar zamonaviy tilning ajralmas qismiga aylangan. Masalan, “fintech” (financial technology) moliya va texnologiya tushunchalarining birlashuvi asosida yuzaga kelgan bo‘lsa, “edtech” ta’lim texnologiyalarini anglatadi. Bu kabi birliklar zamonaviy iqtisodiy va texnologik jarayonlarning tilga ta’sirini ko‘rsatadi[9]. Bugungi kunda “reels”, “selfi”, “podkast”, “streaming”, “chatbot” kabi birliklar ham neologik qatlamning faol qismini tashkil etmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi natijasida ingliz tilidagi ko‘plab birliklar o‘zbek tiliga tez moslashmoqda. Semantik neologizmlar mavjud so‘zlarning yangi ma’noda qo‘llanishi natijasida yuzaga keladi. Bunda yangi so‘z yaratilmaydi, balki avvaldan mavjud birlik yangi semantik mazmun kasb etadi. Masalan, “platforma” so‘zi dastlab transport yoki bino bilan bog‘liq tushunchani anglatgan bo‘lsa, bugungi kunda u internet xizmatlari va raqamli tizimlarni ifodalash uchun ham ishlatiladi. “YouTube platformasi”, “ta’lim platformasi” kabi birikmalar bunga misol bo‘la oladi. “Virus” so‘zi ham semantik neologizmning yorqin namunasi hisoblanadi. Ilgari faqat biologik kasallik tarqatuvchisini anglatgan ushbu birlik hozirda kompyuter tizimlariga zarar yetkazuvchi dastur ma’nosida ham qo‘llanmoqda. Bu esa texnologik taraqqiyotning tilga ta’sirini ko‘rsatadi. Shuningdek, “kanal” so‘zi ham yangi semantik ma’no kasb etgan birliklardan biridir. Avvallari suv yo‘li yoki televideniye bilan bog‘liq tushuncha sifatida ishlatilgan bo‘lsa, bugungi kunda “Telegram kanali”, “YouTube kanali” kabi raqamli kommunikatsiya vositalarini ifodalash uchun keng qo‘llanmoqda[10]. Ingliz tilida ham semantik kengayish juda faol jarayon hisoblanadi. Masalan, “cloud” so‘zi ilgari “bulut” ma’nosida ishlatilgan bo‘lsa, hozirda “cloud computing” shaklida internetdagi ma’lumotlar omborini anglatadi. Xuddi shuningdek, “streaming” so‘zi suv oqimini anglatishdan media oqimini ifodalashga o‘tgan. Semantik neologizmlar tilning moslashuvchanligini va yangi tushunchalarni ifodalash imkoniyatining yuqoriligini ko‘rsatadi. Globallashuv jarayonida bir tilning boshqa tillarga ta’siri kuchayib bormoqda. Ayniqsa, ingliz tili xalqaro kommunikatsiya vositasi sifatida ko‘plab tillarning leksik qatlamiga yangi birliklar olib kiryapti. O‘zbek tilidagi ko‘plab zamonaviy neologizmlar ham aynan ingliz tilidan o‘zlashgan. Masalan, “marketing”, “startap”, “podkast”, “influencer”, “streaming”, “trend”, “reels” kabi birliklar o‘zbek tilida faol qo‘llanmoqda. Ushbu so‘zlar dastlab ingliz tilida yuzaga kelgan bo‘lsa-da, bugungi kunda ular o‘zbek tilining kundalik

nutqida ham keng ishlatiladi. O‘zlashgan neologizmlar tilga kirgach, ma’lum adaptatsiya jarayonidan o‘tadi. Bu jarayon fonetik, morfologik va semantik moslashuvni o‘z ichiga oladi. Masalan, “blogger” so‘zi o‘zbek tilida “bloger” shaklida qo‘llanmoqda. Keyinchalik undan “blogerlik”, “blogerlar” kabi yangi shakllar ham hosil bo‘lgan. Shuningdek, “selfie” so‘zi “selfi” ko‘rinishida moslashgan. O‘zbek tilida unga grammatik qo‘shimchalar ham qo‘shilmoqda: “selfi qilish”, “selfilar”. Bu holat o‘zbek tilining yangi birliklarni o‘zlashtirishda faol va moslashuvchan tizim ekanini ko‘rsatadi. Ba’zi hollarda neologizmlar kalkalash orqali ham o‘zlashadi. Masalan, “smart home” birikmasi o‘zbek tilida “aqlli uy”, “social media” esa “ijtimoiy tarmoq” shaklida qo‘llanmoqda.

Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar neologizmlarning eng asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlar nutqida yangi birliklar juda tez ommalashmoqda. Instagram, TikTok, Telegram va YouTube platformalari yangi leksik birliklarning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Sleng va media tili zamonaviy kommunikatsiyaning ajralmas qismiga aylangan. “Like bosmoq”, “story qo‘ymoq”, “post tashlamoq”, “trendga chiqmoq”, “reels olish” kabi iboralar yoshlar orasida kundalik nutq sifatida ishlatilmoqda. Bu birliklar grammatik jihatdan o‘zbekcha shakllangan bo‘lsa-da, ularning asosiy qismi ingliz tilidan kirib kelgan. Mem madaniyati ham yangi neologizmlarning paydo bo‘lishiga kuchli ta’sir qilmoqda. Internetdagi kulgili tasvirlar, qisqa videolar va viral kontent orqali ayrim so‘zlar juda tez ommalashadi. Masalan, “cringe”, “vibe”, “mood”, “NPC”, “sigma” kabi birliklar yoshlar leksikasida faol ishlatilmoqda. Bu so‘zlar ko‘pincha hissiy holat, xarakter yoki internet madaniyatiga oid tushunchalarni ifodalaydi[11]. Ingliz tilida internet slengi juda tez rivojlanayotgan bo‘lsa, o‘zbek tilida bu birliklar ko‘pincha moslashtirilgan shaklda qo‘llanmoqda. Masalan, “skrinshot” → “skrin”, “follow” → “follow qilish”, “block” → “bloklamoq” kabi shakllar yuzaga kelgan. Yoshlar nutqidagi neologizmlar tilning zamonaviylashuviga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ular jamiyatdagi madaniy va texnologik o‘zgarishlarning ham bevosita aksidir[12]. Neologizmlar har qanday tilning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Til jamiyat bilan birgalikda o‘zgarib borar ekan, yangi tushunchalar, texnologiyalar va ijtimoiy jarayonlarni ifodalash uchun yangi leksik birliklarga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Shu sababli neologizmlar tilning eng faol va tez yangilanadigan qatlamini tashkil etadi. Zamonaviy davrda fan-texnika, internet va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida ingliz va o‘zbek tillarida minglab yangi birliklar yuzaga kelmoqda. Masalan, “sun’iy intellekt”, “blokcheyn”, “streaming”, “fintech”, “raqamli iqtisodiyot” kabi terminlar bugungi kundagi ilmiy va texnologik taraqqiyot mahsulidir. Ushbu birliklar tilning lug‘at boyligini oshiribgina qolmay, zamonaviy jamiyatdagi yangi tushunchalarni aniq ifodalash imkonini ham yaratadi. Neologizmlar xalqaro kommunikatsiyaning rivojlanishida ham katta rol o‘ynaydi. Bugungi globallashuv davrida ingliz tili xalqaro aloqa vositasi sifatida boshqa tillarga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada o‘zbek tiliga “marketing”, “startap”, “influencer”, “bloger”, “kontent” kabi yangi birliklar kirib kelmoqda. Bu jarayon o‘zbek tilining zamonaviy kommunikatsiya tizimiga moslashayotganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, neologizmlar jamiyat tafakkurining yangilanishiga ham xizmat qiladi. Har bir yangi so‘z ma’lum bir ijtimoiy yoki madaniy hodisaning ifodasi hisoblanadi. Masalan, “onlayn ta’lim”, “masofaviy ish”, “gibrid ta’lim” kabi birliklar pandemiya davridan keyin faol qo‘llanila boshladi va jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarni aks ettirdi. Neologizmlar yoshlar nutqida ayniqsa faol ishlatiladi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan “trend”, “reels”, “vibe”, “mood”, “story” kabi birliklar zamonaviy yoshlar kommunikatsiyasining bir qismiga aylangan. Bu esa tilning dinamik va doimiy harakatdagi tizim ekanini ko‘rsatadi. Neologizmlarning ko‘payishi til rivojiga xizmat qilishi bilan birga ayrim normativ muammolarni ham yuzaga keltiradi. Ayniqsa, chet tillardan kirib kelayotgan birliklarning imlo, talaffuz va grammatik jihatdan moslashuvi tilshunoslikda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ayrim neologizmlar turli shakllarda yozilmoqda. Masalan, “bloger/blogger”, “selfi/selfie”, “onlayn/online” kabi variantlarning parallel qo‘llanishi adabiy me’yorning bir xil shaklda shakllanmaganini ko‘rsatadi. Shuningdek, ingliz tilidan kirib kelgan ayrim birliklarning talaffuzi ham o‘zbek tilining fonetik qoidalariga to‘liq moslashmagan. Neologizmlar bilan bog‘liq yana bir muammo — ularning haddan tashqari ko‘payishi va ortiqcha o‘zlashmalar hisoblanadi. Ba’zi hollarda o‘zbek tilida muqobili mavjud bo‘lsa-da, xorijiy variantlardan foydalanish kuchaymoqda. Masalan, “meeting”, “deadline”, “feedback” kabi birliklarning o‘rniga o‘zbekcha muqobillar mavjud bo‘lsa-da, aynan inglizcha shakllar keng ishlatilmoqda. Bu esa milliy til me’yorlariga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuningdek, ayrim neologizmlar qisqa muddat davomida faol ishlatilib, keyinchalik iste’moldan chiqib ketadi. Texnologik taraqqiyot bilan bog‘liq “pager”, “disketa”, “modem” kabi birliklarning bugungi nutqda

deyarli qo‘llanmasligi bunga misol bo‘la oladi. Bu holat neologizmlarning tabiiy saralanish jarayonini ko‘rsatadi.

Tilshunoslar fikriga ko‘ra, neologizmlarni ilmiy asosda tartibga solish va ularni lug‘atlarga bosqichma-bosqich kiritish muhim hisoblanadi. Zamonaviy lug‘atlarda yangi birliklarning tezkor aks ettirilishi til taraqqiyoti uchun zarur omillardan biridir. Ingliz va o‘zbek tillaridagi neologizmlar o‘rtasida bir qator o‘xshashliklar mavjud. Avvalo, har ikki tilda ham yangi so‘zlarning asosiy manbai texnologik taraqqiyot, internet, ijtimoiy tarmoqlar va globallashuv jarayonlari hisoblanadi. “Blog”, “chat”, “streaming”, “platforma”, “trend” kabi birliklar har ikki tilning zamonaviy qatlamida faol qo‘llanmoqda[13]. Shuningdek, semantik neologizmlar ham har ikki til uchun xosdir. Masalan, “virus”, “platforma”, “tarmoq”, “cloud” kabi birliklar dastlab boshqa ma’noda qo‘llangan bo‘lsa, hozirda texnologik tushunchalarni ifodalash uchun ishlatilmoqda. Biroq ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasida ayrim farqli jihatlar ham mavjud. Ingliz tilida neologizmlar asosan tilning ichki imkoniyatlari orqali hosil bo‘ladi. Affiksatsiya, kompozitsiya va qisqartmalar ingliz tilida juda faol hisoblanadi. Masalan, “crowdfunding”, “microlearning”, “fintech”, “unfriend” kabi birliklar ingliz tilining ichki mexanizmlari asosida yaratilgan. O‘zbek tilida esa neologizmlar ko‘proq o‘zlashma birliklar orqali shakllanadi. Ingliz tilidan kirib kelayotgan yangi birliklar fonetik va grammatik jihatdan moslashtirilib qo‘llanmoqda. Masalan, “selfi”, “bloger”, “trendda yurmoq”, “like bosmoq” kabi shakllar bunga misol bo‘ladi. Milliy mentalitet ham neologizmlarning qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ingliz tilida ayrim birliklar tez va tabiiy ravishda ommalashsa, o‘zbek tilida ularni mahalliy madaniyat va til me’yorlariga moslashtirish jarayoni kuzatiladi. Masalan, ingliz tilidagi “smart home” birikmasi o‘zbek tilida “aqlli uy” shaklida tarjima va moslashtirish orqali qo‘llanmoqda. Umuman olganda, ingliz va o‘zbek tillaridagi neologizmlar tilning doimiy rivojlanishini ko‘rsatadi. Ular jamiyatdagi ijtimoiy, texnologik va madaniy o‘zgarishlarning lingvistik ifodasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Adabiyotlar

1. Bektemirova G. J. qizi. (2025). O‘zbek tilida neologizmlarning shakllanish jarayoni va ularning qo‘llanish sohasi. Yangi O‘zbekiston pedagoglari axborotnomasi, 3(10), 71–73.
2. Matkarimova,A. I., Azizov A. U. (2025). Tilshunoslikda neologizmlarga doir nazariy qarashlar. Science and Education Scientific Journal, 6(12), 931–934.
3. Avlayeva S. B. (2026). Neologizmlarning shakllanishi va rivojlanish omillari. Innovatsiya va taraqqiyot, 4(4), 374–379.
4. Norkulova Sh., Uralova O. P. (2024). Neologisms in English: New words and their integration into the language. Foreign Linguistics and Linguodidactics, (4), 61–67.
5. Shukurjonova S. (2023). Neologizmlar. Journal of New Century Innovations, (1), 54–56.
6. Ismoilova K. R. (2026). Neologizmlarning lingvistik tasnifi va zamonaviy ingliz tilidagi yangi so‘zlar tahlili. Advances in Science and Humanities, 2(5), 70–73.
7. Ergashev T. T. (2026). Ingliz va o‘zbek tilidagi neologizmlarning semantik xususiyatlari. Raqamli transformatsiya sharoitida sun’iy intellektni rivojlantirish va zamonaviy matematikani o‘qitish muammolari va yechimlari, 555–557.
8. Matmusaeva K. M. qizi. (2026). Ingliz va o‘zbek tillarida neologizmlarning shakllanishi va qo‘llanilishi: qiyosiy tahlil. Sustainability of Education Socio-Economic Science Theory, 1–3.
9. Ismoilova K. R. (2026). Neologizmlarning lingvistik tasnifi va zamonaviy ingliz tilidagi yangi so‘zlar tahlili. Advances in Science and Humanities, 2(5), 70–73.
10. Algeo J. (1991). Fifty Years among the New Words. Cambridge University Press.
11. Bauer L. (1983). English Word-Formation. Cambridge University Press.
12. Karimova M. A. (2025). Neologizmlar va ularning o‘zbek tili lug‘aviy tizimidagi o‘rni. Scholar Multidisciplinary Scientific Journal, 3(11), 33–37.

SAMARQAND UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC REPORTS

Texnik muharrir **Sh.Xoliqulov**

Muharrirlar:

I.Sulaymonov - fil.f.d., dotsent
E.Arziqulov - f.-m.f.d., dotsent
O.Yusupova - fil.f.n., dotsent

Mas'ul muharrir:

A. Sh. Yarmuxamedov - f.-m.f.n.

Muassis: Samarqand davlat universiteti Manzil: 140104,
Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 240-38-47, Faks: (0 366) 239-13-87 e-mail:
axborotnoma.uz
SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi. Bosishga 30.05.2026-yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00
Buyurtma raqami 845 Adadi 30 nusxa.

ISSN 2181-1296